



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№2

2026



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 -yil, 2-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008-yil 31-dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e’tirof etilgan

Tahririyat a’zolari:

Mas’ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardayev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardayeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay’ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari:

O.M.Pardayev – SamISI prorektori, iqtisod fanlari doktori,
professor

Tahrir hay’ati a’zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

D.H.Aslanova – iqtisod fanlari nomzodi, professor

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

Sevinch Shomurot qizi Arziyeva Gilam ishlab chiqarish korxonalarida iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish va marketing qarorlarida qo'llash	147
Xilola Nematovna Ochilova, Mirzohid Azamat o'g'li Iskandarov Boshqaruvda menejment tamoyillarining o'rni, ahamiyati va zaruriyati	151
Nigina Marupovna Usmanova Xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'rni hamda holat tahlili	155
INNOVATSIYA VA RAQAMLI IQTISODIYOT	
Xayrulla Qilichovich Qarshiboyev Iqtisodiy jarayonlarni modellashtirishda chiziqli regressiya modelidan foydalanish	162
Malika Axmad qizi Qurbonova Hududiy boshqaruvda raqamli iqtisodiyot samaradorligini ekonometrik baholash	166
Nargiz Toxirovna Sattarova Mintaqaviy tadbirkorlik subyektlarini raqamli ekotizimga integratsiyalash orqali hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlash	169
Gullola Mirkamolovna Toxirova Savdo korxonalarida innovatsion rivojlanish va barqaror iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik	172
Sanjar Safarovich Bazarov Iqlimga moslashuvchan asalarichilikni rivojlantirishda raqamli monitoring tizimlarini baholash	175
MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT	
Shavkat Sobirovich Oltayev Milliy iqtisodiyot taraqqiyotida eksport faoliyatining ahamiyati	180
Nargiza Muzafarovna Babaeva Mikromoliyaviy tashkilotlarning kichik biznesni qo'llab-quvvatlashdagi roli	183
BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT	
Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналарда 5-сон МХХС стандарти асосида активлар ҳисобини юритиш	191
Jahongir Bakhodirovich Ergashev Savdo korxonalari iqtisodiy samaradorligini moliyaviy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish	194
Давлат Комилов Уразов Актуальные вопросы трактовки, классификации и оценки качества аудиторских услуг	198
Asror Maxmanazar o'g'li Yusupov Qo'shma korxonalarda aktivlarni xalqaro standartlar asosida tashkil etishning o'ziga xos jihatlari	205
Alisher Bobaqulovich Ravshanov Chorvachilik xo'jaliklarida qoramollarni hisobga olish muammolari	210
Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova Umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyati samaradorligini kompleks iqtisodiy tahlil qilish va baholashning zamonaviy yondashuvlari	215
TA'LIM, KADRLAR TAYYORLASH VA PEDAGOGIKA	
Farrux Shadiyorovich Shanazarov Ta'lim va ijtimoiy xizmatlarning inson kapitalini shakllantirishdagi o'rni	218
Зулфия Самиевна Ганиева, Лазиз Абдирашидович Наврузов Социально-когнитивные механизмы формирования математических компетенций: синтез идей Л.С. Выготского и принципов RIE	223
E'TIBORGA MOLIK MASALALAR	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Жамоада яхши етакчининг борлиги – жамоанинг бахти	227

Xilola Nematovna Ochilova – SamISI, “Menejment” kafedrası dotsenti v.b., PhD

Mirzohid Azamat o‘g‘li Iskandarov – SamISI, Servis fakulteti, MR-324-guruh talabasi

BOSHQARUVDA MENEJMENT TAMOYILLARINING O‘RNI, AHAMIYATI VA ZARURIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshqaruv tamoyillarining nazariy yondoshuvlari, menejment tamoyillarining o‘rni, boshqaruvda raqobatbardoshlikni oshirish hamda samaradorlikka erishishda tamoyillarning ahamiyati va zaruriyati yoritib berilgan. Tamoyillarni qo‘llashda boshqaruv samaradorligiga erishish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: boshqaruv, menejment tamoyillari, amaliy tamoyillar, nazariy tamoyillar, resurslarni optimal taqsimlash, raqobatbardoshlik, samaradorlik, boshqaruv samaradorligi.

Kirish. Menejment tamoyillari tashkilotlarning muvaffaqiyati va samaradorligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynovchi asosiy yondashuvdir. Bu tamoyillar – resurslarni boshqarish, xodimlarning motivatsiyasini oshirish, strategik maqsadlarni belgilash va amalga oshirish jarayonlarida muvofiqlashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan qoidalar va prinsiplar kompleksidir. Menejment sohasidagi tarixiy rivojlanish jarayoniga nazar tashlasak, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida F.Taylor, A.Fayol, va G.Ford kabi mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar muhim ahamiyat kasb etdi. O‘rta asrlarda A.Temur ham boshqaruv tamoyillarini o‘z yondoshuvlariga asoslanib boshqarilganligini “Temur tuzuklari” asarida keltirib o‘tilgan. Boshqaruv tamoyillarining shakllanishi chuqur tarixiy ildizlarga ega. O‘zining ixcham, tezkor boshqarish devoniga ega bo‘lgan Amir Temur saltanatidek buyuk davlat ilmiylik; yakkahokimlik; ierarxiya; bilimdonlik demokratiya kabi tamoyillar asosida boshqarilgan.

Bu boshqaruv tamoyillari tashkilotlarning samaradorligini oshirishda muhim qadam bo‘ladi va zamonaviy menejment nazariyalarining asosini tashkil etadi. Menejment tamoyillari keng qamrovli bo‘lib, maqsadga muvofiqlik, intizom, mas‘uliyat, hamkorlik va insoniylik kabi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi. Bu tamoyillar amaliyotda tashkilot ichki muvofiqlikni ta‘minlash, resurslarni optimal tarzda taqsimlash va xodimlarning ishchanligini oshirish uchun qo‘llaniladi. Ular nafaqat tashkilotlarning barqarorligini ta‘minlaydi, balki raqobatbardoshlikni kuchaytiradi va uzoq muddatli muvaffaqiyat uchun zamin yaratadi. Hozirgi vaqtda, texnologik rivojlanish va global muhitda muvofiqlikni ta‘minlash uchun yangi metodlar va tamoyillar ishlab chiqilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Korxonalarning samaradorligini oshirish va raqobatbardoshligini ta‘minlashda foydalaniladigan menejment tamoyillari bo‘yicha qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu soha mutaxassislari xorijiy olimlardan F.Taylor, A.Fayol, G.Ford va Pol Saymon hamda O‘zbekistonlik olimlardan S.S.Gulyamov, Yo.A.Abdullayev, M.Sharifxo‘jayev, M.Q.Pardayev, N.Q.Yuldashev va boshqalar o‘z asarlarida boshqaruvni to‘g‘ri amalga oshirishning qo‘llaniladigan menejment tamoyillari, uning boshqaruv yondashuvi kabi yo‘nalishlarda bir qator qarashlarni bayon etishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada boshqaruvda menejment tamoyillarining o‘rni, ahamiyati va zaruriyati tadqiqot qilish jarayonida turli metodologik yo‘nalishlardan, xususan, induksiya va deduksiya, zamon va makon, miqdor va sifat, tahlil va sintez, tizimli va mantiqiy tahlil kabi metodologik yondoshuvlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Menejment tamoyillarining asosiy tushunchalari va mohiyati, tashkilotlarning muvaffaqiyati uchun muhim bo‘lgan prinsiplarni tashkil etadi. Bu tamoyillar tashkilot ichida muvofiqlik, samaradorlik va innovatsiyalarni ta‘minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ular, avvalo, menejment sohasida ishlab chiqilgan nazariy va amaliy yondashuvlarni ifodalaydi, shuningdek, tashkilotlarning strategik maqsadlariga erishish uchun ishlatiladi.

Menejment tamoyillari, asosan, tashkilot boshqaruvi jarayonida muhim rollarni bajaradi. Ular tashkilotdagi har bir bo‘linma va xodimlarning vazifalarini aniqlash, resurslarni optimal taqsimlash va faoliyatlarni muvofiqlashtirishda yordam beradi. Bu tamoyillar yordamida tashkilotlar o‘z ichki va tashqi muhitga moslashadi, muammolarni oldindan aniqlash va yechim topish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Menejment tamoyillarining mohiyatini tushunish uchun ularning asosiy elementlariga e‘tibor qaratish lozim. Birinchi bo‘lib, maqsadga muvofiqlik tamoyili muhimdir. Bu tamoyil tashkilotning umumiy strategik maqsadlariga erishish uchun barcha faoliyatlar va resurslarni bir

yo‘nalishga yo‘naltirishni taqozo etadi. Ikkinchidan, intizom tamoyili tashkilot ichidagi tartib va tartib-intizomni saqlashga qaratilgan bo‘lib, bu esa ish jarayonining uzluksizligini va samaradorligini ta‘minlaydi. Shuningdek, menejment tamoyillarining asosiy mohiyatlaridan biri – mas‘uliyat tamoyilidir. Bu tamoyil xodimlar va boshqaruvchilarga o‘z vazifalarini bajarishda javobgarlikni anglashni taqozo etadi. Bu bilan tashkilotda javobgarlik muhitini shakllantirish va ish sifatini oshirish mumkin bo‘ladi. Hamkorlik va insoniylik tamoyillari esa jamoaviy ruh va muhitni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, xodimlar o‘rtasida yaxshi muvofiqlik va ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Rivojlanish va innovatsiya tamoyili, zamonaviy muhitda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tashkilotlarning yangi imkoniyatlarni izlash va muammolarga innovatsion yechimlar topish qobiliyatini oshiradi. Bu tamoyil so‘nggi yillarda texnologik rivojlanish va global muhitdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda yanada muhim bo‘lib qolmoqda. Ularning asosiy maqsadi – tashkilotni raqobatbardosh qilish va uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta‘minlashdir.

Menejment tamoyillarining mohiyatini kengroq tushunish uchun ularning amaliyotdagi qo‘llanilishi muhimdir. Ular strategik rejalashtirishda, operatsion boshqaruvda va inson resurslarini boshqarishda keng qo‘llaniladi. Har bir tamoyil o‘ziga xos vazifalarni bajaradi va tashkilotning umumiy maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun, menejment tamoyillari nafaqat nazariy bilimlar sifatida, balki amaliy yondashuvlar va metodlar bilan mustahkamlangan bo‘lishi zarur.

Menejment tamoyillari tashkilotlarning muvaffaqiyati uchun muhim bo‘lib, ularning mohiyati va tushunchalari tashkilotlarni barqaror rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirish va innovatsion qobiliyatlarini mustahkamlash imkonini beradi. Bu tamoyillar yordamida tashkilotlar muvofiqlikni ta‘minlab, resurslarni samarali boshqaradi, xodimlarning ishtirokini va motivatsiyasini oshiradi. Shu bilan birga, ular muammolarni oldindan ko‘rish va yechish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Natijada, menejment tamoyillari tashkilotlarning umumiy muvaffaqiyatiga xizmat qiladigan asosiy poydevordir va har qanday tashkilot uchun rivojlanish strategiyasining muhim qismi hisoblanadi.

Nazariy va amaliy tamoyillarni integratsiya qilish usullari menejment sohasida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu jarayon tashkilotlarning samaradorligini oshirish va ularning strategik maqsadlariga erishish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu usullarni to‘g‘ri va samarali tarzda amalga oshirish uchun, avvalo, nazariy tamoyillar bilan amaliy tajribalarni o‘zaro muvofiqlashtirish va ularni integratsiya qilish uchun aniq metodologiyalar ishlab chiqish zarur.

Birinchidan, nazariy va amaliy tamoyillarni integratsiya qilish jarayonida, ularni bir-biriga moslashtirish va muvofiqlashtirish uchun, tashkilotning o‘ziga xos sharoitlari va ehtiyojlariga mos keladigan yondashuvlar tanlanadi. Bu jarayonda, nazariy tamoyillar, masalan, Fayolning umumiy boshqaruv prinsiplari yoki Taylorning ilmiy boshqaruv metodlari, amaliy holatlarga moslashtiriladi, ya‘ni ularni real ish jarayonlariga tatbiq qilish uchun konkret qoidalar va amaliy usullar ishlab chiqiladi. Bu integratsiya jarayoni, odatda, tashkilotning strategik rejalashtirish bosqichlarida boshlanadi va boshqaruv tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy loyihalar orqali davom ettiriladi.

Ikkinchidan, nazariy va amaliy tamoyillarni birlashtirishda, ularni yangi texnologiyalar va innovatsion metodlar bilan qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Masalan, zamonaviy ma‘lumotlar analitikasi va sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali, menejment tamoyillari real vaqtda monitoring qilinadi, ularning samaradorligi tahlil qilinadi va takomillashtiriladi. Bu esa, nazariy bilimlarni amaliy ish jarayonlariga moslashtirishda, ularni dinamik va moslashuvchan qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalar yordamida, tashkilot ichidagi kommunikatsiya va hamkorlikni kuchaytirish, muammolarni aniqlash va yechish jarayonlarini soddalashtirish mumkin bo‘ladi.

Uchinchidan, nazariy va amaliy tamoyillarni integratsiya qilishda, tashkilotda ta‘lim va o‘qitish tizimlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon, xodimlarning nazariy bilimlarini amaliy ishda qo‘llashga o‘rgatish bilan bog‘liq bo‘lib, ularni yangi metodologiyalar va usullar bilan tanishtirishni o‘z ichiga oladi. O‘quv dasturlari, treninglar va seminarlar orqali, menejment tamoyillarining nazariy jihatlarini bilan tanishtiriladi va ularni amaliyotda qo‘llash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar shakllantiriladi. Bu, ayniqsa, zamonaviy menejmentda muhim bo‘lib, innovatsion yechimlar ishlab chiqish va muvofiqlikni ta‘minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, nazariy va amaliy tamoyillarni muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun,

tashkilotda doimiy ravishda takomillashtirish va baholash jarayonlari joriy etilishi zarur. Bu jarayon, yangi metodlarni sinovdan o'tkazish, ularning samaradorligini o'lchash va, agar kerak bo'lsa, takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Bunday yondashuv, tashkilotning muvofiqligini va innovatsion qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Ushbu jarayon, qattiq nazorat va baholash mexanizmlari, shuningdek, xodimlarning fikr-mulohazalari va takliflarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib nazariy va amaliy tamoyillarni integratsiya qilish usullari, tashkilotlarning strategik va operatsion faoliyatlarini muvofiqlashtirish, resurslarni samarali boshqarish va innovatsion rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon, nazariy bilimlarning amaliy tajribalar bilan uyg'unlashuvi orqali, tashkilotlarni raqobatbardosh, moslashuvchan va barqaror qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, integratsiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, tashkilotning ichki strukturalari, xodimlarning malakasi va texnologik infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek, doimiy rivojlanish va takomillashtirishni ta'minlash muhim omil hisoblanadi.

Menejment tamoyillarining amaliy qo'llanilishi va muammolari mavzusida, ularning tashkilotlarda qanday qo'llanilishi va yuzaga keladigan muammolar haqida keng va chuqur tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Menajment tamoyillari, avvalo, tashkilotlarning strategik va operatsion faoliyatini boshqarishda asosiy yo'nalishlarni belgilab beradi. Ular resurslarni samarali taqsimlash, xodimlarni motivatsiya qilish, muhim maqsadlar uchun strategiyalar ishlab chiqish va amalga oshirishda yordam beradi. Biroq amaliyotda bu tamoyillarni to'g'ri va samarali qo'llashda turli muammolar paydo bo'lishi mumkin.

Birinchidan, menejment tamoyillarining amaliy qo'llanishida tashkilotlarning ichki muhitiga mos kelmaslik muammosi yuzaga keladi. Har bir tashkilot o'zining o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, tamoyillarni umumiy ko'rinishda qo'llash ba'zan muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Masalan, muayyan tamoyil – intizom yoki hamkorlik – har bir muhitda bir xil natija bermasligi mumkin. Bu esa, tamoyillarni amaliyotga tatbiq etishda, ularning kontekstga moslashtirilishi zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, muayyan tamoyillarni buzish yoki noto'g'ri qo'llash, xodimlar orasida norozilik yoki ishonchsizlikni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa tashkilotning samaradorligini pasaytiradi.

Ikkinchidan, menejment tamoyillarini amaliyotda qo'llashda, ularni shakl va mazmun jihatidan moslashtirish muammosi yuzaga keladi. Har bir tamoyil, masalan, maqsadga muvofiqlik yoki rivojlanish tamoyili, tashkilotning o'ziga xos ehtiyojlariga mos ravishda o'zgartirilishi kerak. Biroq ba'zan menejment xodimlari yoki rahbarlar tamoyillarni faqat yuzaki tarzda qabul qilishadi yoki ularni faqat nazariy darajada saqlashadi, bu esa tashkilotning haqiqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tamoyillarni amaliy qo'llashda, ularga real sharoit va ehtiyojlarga moslashtirish jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, menejment tamoyillarining amaliy qo'llanilishida, zamonaviy texnologiyalar va metodlarning yetishmasligi muammosi yuzaga keladi. Hozirgi zamon tashkilotlari, ayniqsa, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish imkoniyatlaridan faol foydalanmoqda. Biroq, menejment tamoyillarini texnologik vositalar bilan integratsiya qilishda muammo yuzaga kelishi mumkin. Masalan, innovatsion boshqaruv tizimlarini joriy qilish uchun malakali kadrlar va zamonaviy uskunalar talab etiladi, ammo bu imkoniyatlar har bir tashkilotda mavjud emas. Bu esa, tamoyillarni samarali qo'llashda texnologik muvofiqlik muammosini keltirib chiqarmoqda.

Shuningdek, muammo sifatida, menejment tamoyillarining amaliy qo'llanilishida inson resurslari bilan bog'liq muammolar ham mavjud. Xodimlarning motivatsiyasi va ishonchini ta'minlashda muhim rol o'ynovchi tamoyillarni, masalan, insoniylik va hamkorlik, bajarishda, xodimlar bilan bog'liq muammolar yuzaga keladi. Ba'zan, rahbarlar va menejment xodimlari tamoyillarni to'g'ri tushunmasliklari yoki ularni yuzaki qabul qilishlari natijasida, samarali natijalarga erisha olmaydilar. Bu esa, tashkilot ichida muvofiqlikni buzadi va muhim maqsadlarning amalga oshirilishiga to'sqinlik qiladi.

Shu bilan birga, menejment tamoyillarining amaliy qo'llanilishi bilan bog'liq muammo sifatida, ularni doimiy ravishda yangilash va rivojlantirish muammosi ham mavjud. Dunyo iqtisodiyoti va texnologiyalarining tez o'zgarishi sharoitida, tamoyillarni eskirgan yoki muvofiqliksiz qilish mumkin. Buning oldini olish uchun, tashkilotlar tamoyillarni doimiy ravishda tahlil qilishlari va zamonaviy sharoitlarga moslashtirishlari lozim. Bu esa, qo'shimcha

resurslar va keng qamrovli siyosatni talab etadi, shuningdek, rahbarlar va xodimlarning o‘zgarishga moslashuvchanligini oshiradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, menejment tamoyillarining amaliy qo‘llanilishi muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun, yuqorida aytib o‘tilgan muammolarni hal etish va ularni muvofiqlashtirish muhimdir. Bu uchun, tashkilotlar ichki muhitga moslashtirilgan, texnologik imkoniyatlarni hisobga olgan va xodimlarni tamoyillarga tayyorlashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishlari lozim. Shuningdek, tamoyillarni doimiy ravishda tahlil qilish va yangilash, muammolarni ilg‘or metodlar bilan hal etishga yordam beradi. Faqat shunday holda, menejment tamoyillari tashkilotlarning rivojlanishida muhim rol o‘ynashda davom etadi va ular muhim boshqaruv vositasi sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlab boradi.

Menejment tamoyillarining ahamiyati va zaruriyati mavzusida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu tamoyillar tashkilotlarning muvaffaqiyati va samaradorligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular resurslarni optimal taqsimlash, xodimlarning motivatsiyasini oshirish va strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Tarixiy rivojlanish jarayonida, Fayol va Taylor kabi mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar, zamonaviy menejmentda ham keng qo‘llanilmoqda va yangi texnologiyalar hamda global muhitga moslashishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tamoyillar amaliyotda tashkilotlar ichki muvofiqlikni ta‘minlash, innovatsiyalarni rivojlantirish va raqobatbardosh bo‘lish uchun asosiy vositadir. Shuningdek, tadqiqot davomida menejment tamoyillarining nazariy va amaliy integratsiyasining usullari, hamda ularning kundalik boshqaruv jarayonlarida qo‘llanilishi muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Bu tamoyillarni to‘g‘ri qo‘llash va muammolarni hal qilish uchun yangi metodlar ishlab chiqilishi zarurligi ham ta‘kidlandi. Axir, menejment tamoyillari nafaqat tashkilotlarning ichki muvofiqligini mustahkamlash, balki ularning uzoq muddatli rivojlanishini ham ta‘minlaydi. Shu bilan birga, zamonaviy muhitda texnologik rivojlanishlar va global iqtisodiy o‘zgarishlar menejment tamoyillariga yangi yondashuvlarni joriy qilishni talab qilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, inson kapitaliga bo‘lgan e‘tiborni kuchaytirish, innovatsion yechimlarni qo‘llash va muvofiqlikni ta‘minlashda yangi imkoniyatlarni ochmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, menejment tamoyillarining to‘g‘ri va samarali qo‘llanilishi tashkilotlarning barqarorligini mustahkamlash va raqobatbardoshligini oshirish uchun muhimdir. Kelajakda, ushbu sohada yangi texnologiyalar va metodlarni o‘rganish, shuningdek, inson resurslarini boshqarishda innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish muhim bo‘lib qoladi. Bundan tashqari, menejment tamoyillarini yanada chuqurroq o‘rganish va ularni turli sohalarida amaliy qo‘llash orqali, tashkilotlarning rivojlanish strategiyalarini takomillashtirish mumkin.

Umuman olganda, menejment tamoyillarining ahamiyati va zaruriyati shunchaki nazariy asos bo‘lib qolmay, balki ular amaliy hayotda muvaffaqiyat va barqarorlikni ta‘minlovchi muhim vositadir. Bu tamoyillarni chuqur o‘rganish va to‘g‘ri qo‘llash, kelajakda tashkilotlarning muvaffaqiyatli rivojlanishini ta‘minlash uchun asosiy shartlardan biri bo‘lib qoladi.

Х.Очилова, М.Искандаров Роль, значение и необходимость принципов менеджмента в управлении	Kh.Ochilova, M.Iskandarov The role, significance, and need of management principles in management
Аннотация. В данной статье освещаются теоретические подходы к принципам управления, роль принципов менеджмента, значение и необходимость принципов в повышении конкурентоспособности и достижении эффективности в управлении. Разработаны научные рекомендации по достижению эффективности управления при применении принципов. Ключевые слова: управление, принципы менеджмента, практические принципы, теоретические принципы, оптимальное распределение ресурсов, конкурентоспособность, эффективность, эффективность управления.	Abstract. This article highlights the theoretical approaches to management principles, the role of management principles, and the importance and necessity of principles in increasing competitiveness and achieving efficiency in management. Scientific recommendations have been developed to achieve management efficiency when applying the principles. Keywords: management, management principles, practical principles, theoretical principles, optimal resource allocation, competitiveness, efficiency, management efficiency.

ISSN 2091-5187

❧ “SERVIS” ❧

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

15.05.2026-yilda terishga berildi. 26.05.2026-yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0105A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.